Annatatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganishning bir qator interfaol va inavatsion usullari ko'rsatib o'tilgan. Yangicha metodlarni qo'llash usullari va innavatsion yondashuvlar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Ingliz tili harflari. Indivisibiliti. Ingliz tilining tarixiy merosi. Amerikada ingliz tili

Ingliz tili bugungi jamiyatning tili. Uni bilmay turib yaxshi ishga joylasha olish, biror joyga sayoxatga jo'nab ketish usiz bemalol muloqatda bo'lish amri mahol. Bu til har bir mamlakatda alohida ehtiromga sazovor. Uni yaxshilab o'rganib olib siz o'zingiz uchun yangi texnologik olamni kashf etasiz va shu olamda juda ko'p qiziqarli malumotlarga ega bo'lasiz .Agar siz bu to'g'risida , yangi ingliz tili imlosining qoidalari, so'z turkumlari va boshqa yana ko'p narsalar to'g'risida ma'lumotlarni topasiz.Buyuk Britaniya bilan Amerika Qo'shma Shtatlari ushbu ikki mamlakatning o'rtaida hanuzgacha jamiyat uchun tushunarsiz bo'lib kelayotgan tik munosabatkarishakillangan. Ular orasidagi nizolar allaqachonlardan beri vujudga kelgan. Har bir mamlakat bu tilga o'zi tomonidan yangiliklar kiritishga harakat qiladi. Amerikaning yosh avlodga taniqli bo'lgan NoaUebster lug'atini o'rganishni taklif qilgan .Shunday payt ham bo'lganki bu tilda gapirish taqiqlangan. Bunday qonun 1969 yilda AQSH ning Illinoys shtatida chiqqan. Ularning rasmiy tili amerika tili deb tan olingan. Birinchi qarashda ularning orasida hech qanday farq ham yo'qday tuyuladi, ammo aslida ingliz tilining 24 shevasi mavjud. Bu turli asarlarning mualliflari bo'lgan yozuvchilar uchun misilsiz qiyinchiliklar tug'diradi. Mana, masalan mashxur qahramon GarriPotter to'g'risidagi kitob. Uni butun Amerika aholisi bemalol o'qiy olishi uchun ingliz tilidan Amerikacha ingliz tiliga tarjima qilishga to'g'ri kelgan.Ingliz tili harflari juda qiziqarli fakt aniqlangan! Luhatdaeng ko'p uchraydigan harf -'E' , eng kam uchraydigani esa -'Q'. Amerikada ingliz tili bilan bevosita tanish bo'lganlar bir hil harflar turli talaffuz qilinishi mumkinligini juda yaxshi biladi. Hammasi gap va uning intonatsiyasiga bog'liq. Gapdag'i bitta harf bir nechta xarf birikmalariga ega bo'lishi mumkin. Ingliz tili lug'atining interpretatsiyasida yana bir harf bo'lgan. Bu o'ziga hos so'zlarda uchrab turgan. Uning hozir bo'lishi so'zning ma'nosini zarracha o'zgartirmagan, shuning uchun ham bugungi kunda bu harf ingliz tilidagi so'zlardan chiqib ketgan bo'lsa kerak.Ingliz tilining so'zlarini deyarli har bir tilda o'zining talaffuzi,

imlo qoidalari va jaranglashi bilan ajralib turadigan so‘zlar bor . Keling bir nechta misolni ko‘rib chiqaylik: rhythms so‘zining tarjimasi ritmlar. Bu so‘zda birorta ham unli harf yo‘q va u ingliz tilida bu tarzdagi eng uzun so‘z deb hisoblanadi. Indivisibiliti – bu birlik. E’tibor bergen bo‘lsangiz (i) unli harfi bu so‘zda 7 marta uchraydi. Bu so‘z ingliz tili uchun eng oddiy so‘zlardan bittasi. Keyingi so‘z -set. Birinchi qarashda mittigina bo‘lib ko‘ringan bu so‘z fe’l uchun 7 xil ma’noga ega. Bu hali hammasi emas! Ushbu so‘z talaffuzning juda ko‘p variantlari mavjud . Bu so‘zning xilma-xilligh tarjimani qiyinlashtiradi, shuning uchun ham so‘zning talaffuzi bilan butun gapning ma’nosiga chuqur e’tibor berish kerak. Ingliz tilida eng uzun so‘z hisoblanadigan so‘z ham mavjud bu

PNEUMONOULTRAMICROSCOPICSILICOVOLCANOCONIOSIS bu so‘z ingliz tilida haqiqatdan ham ishlatishga ishonish qiyin. U kasallikni va uning nomlanishini anglatuvchi gap sifatida tarjima qilinadi. Xatto oddiy lug‘attda xam tasavvuflı holatlar uchrab turadi . Uzoq 1932 yildan 1940 yilga qadar dord- sharpa so‘z mavjud bo‘lgan. Uning hech qanday ma’nosи bo‘lmagan, chunki u anglashilmovchilik natijasida lug‘atga qo‘shilib qolgan . Ingliz tilidagi gaplar tez aytish o‘yini nafaqat boshqa tillarda ingliz tilida ham uning o‘ziga yarasha o‘rni bor. Masalan ularning biri – Thesixthsicksheik’ssixthsheep’ssick.Harflarni yaxshilab o‘rganish uchun ingliz tilining barcha harflari hozir bo‘lgan gap ham mavjud . “I am “ bilan “ I do” so‘z iboralarini deyarli har bir maktab o‘quvchisi biladi. Bu iboralar eng qisqa gaplar. Eng uzun gapga kelsak , uning tarkibida 13955 nafar so‘z borIngliz tilining tarixiy merosi ingliz tilining dunyoga kelish tarixi o‘z ildizlari bilan Germaniya tomoniga qarab ketadi. O‘rta asrlarda Germaniyaning qabilalari qachonlardandirrimliklar tomonidan o‘zlashtirib olingan Biritaniya yeriga bostirib kirgan va muloqot davomida yangi tushunarsiz til til vujudga kelgan. Qadimiy ingliz tili hozirgisidan farq qiladi.Masalan: “ bride” so‘zining tarjimasi “kelin” qadimiy tilda esa bu yegulik tayyorlash jarayonini anglatgan.O‘sha davrdan buyonko‘p so‘zlar o‘zlashtirilgan, so‘zlarning nafaqat jaranglashi-yu ma’nosи , imlo qoidalari ham o‘zgarib ketgan. Yana shunisi ma’lumki 15 asrga qadar bu tild tinish belgilari umuman bo‘lmagan.Bu til boymi yoki kambag’almi? Ingliz tilini sevuchilarining ko‘philigi bu til soddaligi va kundalik hayotiyligi tufayli juda ommalashib ketganligi to‘g‘risidagi nazaryani doim takidlaydilar . Biroq bu nazariya rad qilinishga loyiq . O‘zingiz tassavurqilib ko‘ring aynan sbu tilda tahminan 800 mingdan ortiq so‘z bor . Nafaqat so‘zlar balki sino‘nim qatorlari ham o‘zimizning talaffuz etilishi bilan juda boy. Masalan: “drunk” ao‘ziningtarjimasi “ mast” ma’nosini beradi, bu oddiy so‘zning 2241 sinonimi mavjud, bu juda katta son. Bu rekort hatto Ginnes rekordlar kitobiga ham kiritilgan. Bunaqasini boshqa birorta tilda ham topa olmasligingiz aniq.Ingliz tili biror joyda turib qolgani yo‘q, u doimo yangi so‘zlar bilan yangilanib borayabdi. Bu ham tilni yaxshiroq

o‘rganib olosh uchun juda zarur.Yuqorida keltirilgan faktlarga asoslanib shunday xulosa chiqarish munkinki bu til hali juda uzoq yillar(ehtimol asrlar) davomida insoniyat muloqot uchun foydalanib kelayotgan tillarning tojdori bo‘lib qoladi. Uni o‘rganish tinmay rivojlanishga tayyor barcha talabalar, o‘quvchilar va oddiy odamlarning asosiy maqsadi bo‘lib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.Yo’ldoshev, S.Usmonov, “Pedagogik texnologiya asoslari”, T., 2004.
2. J.Yo’ldoshev, “Ta’lim yangilanish yo’lida”, T., 2000.
3. Ptuyukov V.Yu., “Osnov pedagogicheskoy texnologii”, M., 1999.
4. www.tests-tests.com
5. www.psiholog1.ru
6. www.uzedu.uz
7. www.ziyonet.uz

СПОРТЧИЛАРДА ПСИХОЛОГИК САЛОМАТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Бухоро давлат педагогика институти
Собиров Абдулазиз Абдурозиқовиҷ

Аннотация. Бугунги кунда, замонавий психологияда психологик саломатликнинг педагогик-психологик хусусиятлари ҳамда унга таъсир қилувчи омилларни илмий-назарий асосларини таҳлил этишга бағишиланган адабиётлар ниҳоятда озчиликни ташкил этади. Айни пайтда, психологик саломатлик ва унинг функцияларини очиб берувчи ҳамда унинг методологик илдизларини асослаб бера олувчи илмий тадқиқотларни алоҳида ўрни бор.

Калит сўзлар: саломатлик, психология, табиатшунослик.

Психологик саломатлик бу – психологик ва ижтимоий фаровонлик ҳолати бўлиб, унда инсон ўз имкониятларини англаб этади, ҳаётдаги қийинчиликлар ва стрессларга самарали қарши туради, самарали, онгли фаолият олиб боради ва жамият ривожига ҳисса қўшади. Аввало, бу психиканинг барқарор, етарли даражада ишлиши, шунингдек, асосий билиш жараёнлари: идроқ, хотира, диққат, тафаккур туфайли амалга оширилади. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилотининг таъкидлашича, руҳий бузилишлар дунё ахолисининг тахминан 12 фоизига таъсир қиласи - тахминан 450 миллион киши ёки дунё бўйлаб ҳар тўртинчи одам психологик саломатлик билан боғлиқ муаммоларга дуч келмоқда. Спортчиларда психологик саломатликни шакллантиришда онг ва унинг шахс фаолиятидаги ўрнига алоҳида аҳамият қаратиш муҳим аҳамият касб этади. Жумладан, кишининг онги бизнинг теварак-атрофимизни қуршаб турган олам ҳақидаги билимлар мажмуасидан таркиб топган. Унда субъект билан объект ўртасида аниқ фарқланишининг ўз ифодасини топиши, яъни шахс «Мен» деган тушунча билан «Мен эмас» деган тушунчага нима тегишли эканини аниқ билади. Тирик организмлар дунёси тарихида биринчи бўлиб ундан ажralиб чиқсан ва ўзини атроф муҳитга қарама-қарши кўйган инсон ўз онгидага ушбу қарама-қаршилик ва тафовутни сақлаб келмоқда. Жонли мавжудотлар ичida унинг ўзигина ўзини билишга, яъни психик фаолиятни ўзини тадқиқ этишга йўналтиришга қодир. Одам ўз хатти-ҳаракатларини ва умуман ўзини ўзи онгли равишида баҳолайди. «Мен»нинг «Мен эмас»дан ажратилиши хар бир киши болалигига бошдан кечирадиган йўл бўлиб, унинг ўзини ўзи англаши жараёнида юз беради. Қадим дунё файласуфларнинг соғлиқни сақлаш ҳақидаги фикрлари

кейинги тадқиқотчилар ишларида ўз аксини топди. Замонавий даврда (XVII – XX аср охири.) табиатшунослик фанларининг шаклланиши ва ривожланиши жуда катта моҳият касб этмоқда ва саломатлик омилларни аниқлаш ғояси унинг таркибий қисмлари сезиларли даражада ўзгармоқда. Аввало, саломатлик нафақат шахс учун, балки давлат учун ҳам аҳамиятли қадрият сифатида тушунилади, ва шунинг учун жамиятнинг ҳаётийлиги ва барқарорлиги иқтисодий ва маданий ривожланиш миллий фаровонликнинг кўтарилиш шарти сифатида қаралади. А. Ананевнинг сўзларига кўра, саломатлик психологиясининг обьекти касал эмас, балки соғлом одамдир, биз ҳали ҳам иккилик ва номувофиқлик инсоннинг табиатига хос эканлигини таъкидлаймиз: касалликдан қочиш қониқарли ҳолатни яхшилаш учун куч сарфлашдан кўра бекиёс муҳимроқдир, яъни: соғлом инсон, янада соғлом бўлишга интилмайди. Бу ёшлар орасидаги бефарқлийнинг ўз соғлиғига бепарво муносабатни тушунтиришларидан биридир, чунки улар аллақачон ўзларини соғлом ҳис қилишади ва қариялар орасида соғлиқга бутунлай бошқача муносабат мавжуд ва айниқса касалликлар тобора хуруж қилганда. Руҳий саломатлик ғояси ажралмас тизим сифатида XX асрнинг иккинчи ярмидан интеграциялашган ўрганиш тамойиллари билимларнинг турли соҳаларида шаклланган вақтда пайдо бўлди. Ғарб олимларининг аксарияти "руҳий саломатлик" атамасидан фойдаланадилар. Бироқ, сўнгги йилларда турли мамлакатлардаги тадқиқотчилар "психологик саломатлик" атамасидан фойдаланишни бошладилар. Руҳий ва психологик саломатлик тадқиқотлари доирасида, ҳозирда иккита ҳал қилинмаган муаммо мавжуд. Бири тушунчаларни аниқлаш, иккинчиси эса уларнинг муносабатлари. Бошқача қилиб айтганда, савол нафақат терминларга таалуқли, балки биз инсоннинг "умумий" саломатлиги, шахс ва умуман жамият учун ҳам саломатлик муҳимлигини қанчалик тушунишимизда. тушунчаларнинг таърифига келсак, "руҳий" ва "психологик" саломатликни талқин қилишда учта ёндашув мавжуд. Биринчи ёндашувдан фойдаланишни афзал кўрган тадқиқотчилар фақат "руҳий саломатлик" атамасини қўллайдилар. Ушбу концепцияга киритилган таркибни тушунишга, шунингдек унинг ривожланишига концептуал ёндашув мезонлари жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилотига тегишли аҳолининг руҳий саломатлиги ва фаровонлиги ушбу ташкилот томонидан турли тоифадаги аҳоли ҳаёти сифатининг энг муҳим мезонлари сифатида қаралади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Байковский Ю. В. Психодинамика, как фактор выживаемости малой группы в экстремальных условиях горной среды: монография. М.: ТВТ Дивизион, "Вертикаль", 2010. 264 с.
2. Беляева С. В. Развитие психического здоровья женщин средствами оздоровительно-физкультурной деятельности: автореф. дис. ... канд. психол. наук. М., 2005. 22 с.
3. Гринь Е. И. Личностные ресурсы преодоления психического выгорания у спортсменов: автореф. дис. ... канд. психол. наук. Краснодар, 2009. 24 с.
4. Карпов В. Е. Совершенствование средств саморегуляции психического состояния хоккеистов высшей квалификации в игровой деятельности: автореф. дис. ... канд. пед. наук. Челябинск, 2002. 21 с.
5. Sobirov A. Психическое здоровье // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 9. – №. 9.

Ozon hayot uchun

Shopulatov Samandar Fayzullao'g'li

Surxondaryo viloyati Termiz tumani 28-maktab

samandarshopulatov878@gmail.com

Annotatsiya: Buma qola ya'ni Ozon qatlami hayot uchun maqolamning tasnifi quyidagicha: O'zi nomi bilan ham takitlanganidek Ozon va hayot. Hozirgi kunda bu muammo juda avj olmoqda zero bu maqolada yozilgan sabablarini o'qib kurilganidan keyin qaysidir ma'noda, ularni tabiatga bo'lган munosabati o'zgaradi, men bunga ishonaman.

Kalit so'zlar: Ozon qatlami, hayot, stratosfera, muammo, yemirilish, tabiat va insonlar munosabati

Ozon qatlami nima uzi?

Ozon qatlami quyoshning va boshqa zararli nurlarni yerga tushmasligini ta'minlab turuvchi to'siqdir bu qatlamning yemirilishiga asosiy sabab hozirda har xil zavod va fabrikalardan chiqayotgan zaharli tutunlar Ozon qatlami tuynuklarining kengayishi va ko'payib ketishi insoniyatning eng yangi global muammolaridan biridir. 1994-yil BMT bosh assambleyasi o'z rizalyutsiyasida 16-sentabr Ozon qatlamini himoya qilish kuni deb e'lon qilgan shu yildan 36 ta mamlakat Ozon qatlamini yemiruvchi moddalarni ishlab chiqarishni cheklash yo umuman taqiqlashga doir hujjatlarni imzolagan.

Ozon qatlaming asosiy qismi stratosferada, yer yuzidan o'rtacha 15-50 km. balandlikda joylashgan. Qutblarda esa bu bor-yo'g'i 8 km. balandlikdan boshlanadi. 20-kilometrdan 25 km.gacha oraliqdagi 5 km.da ozon eng zich joylashgan. Juda katta qatlamni tashkil etsa-da, ozonning zichligi juda past, agar u yer yuzidagi havo qadar zichlashtirilsa, atigi 3,5 mm.li juda yupqa pylonka hosil bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, ozonning ahamiyati beqiyos.

Ozon kislородning qarindoshidir. Erkin kislород atomlari kislород molekulasi bilan birlashadi va ozon paydo bo'ladi ($O-O_2 \rightarrow O_3$). Ozonning o'zi juda zararli modda, kundalik hayotimiz nuqtai nazaridan qaralganda zahardan o'zga narsa emas. Quyosh nurlari kislородни bombardimon qilishidan hosil bo'ladigan bu modda Yer sharidagi jamiki jonzotlarni, o'simliklarni ayni shu quyoshning xavfli ultrabinafsha nurlaridan asraydi. Ya'ni ozon qatlami yer sharining o'ziga xos himoya qalqonidir.

Bu qatlamning yemirilish sabablari bo'yicha bir necha nazariyalar bor. Avvaliga olimlar yuqori balandlikda uchuvchi raketalar, samolyotlar ta'sirida ozon yemiriladi, degan fikrni ilgari surishgan. Keyinchalik kimyo zavodlarining atmosferaga

chiqarayotgan zararli gazlari — freonlar — xlortoruglerodlar ozonning eng xavfli kushandalari sifatida e'tirof etila boshlandi. Shuningdek, xlor va bromning zararli ta'siri natijasida stratosferadagi ozon miqdori 10 foiz kamaygan, degan taxmin ham mavjud. Ozon qatlaming yemirilishiga nafaqat insoniyatning, balki tabiiy jarayonlarning ham o'ziga yarasha salbiy ta'siri bor. Vulqonlar uyg'onishi, yer qa'ridagi gazlarning ajralib chiqishi bu qatlamdagи tuynuklarni kengaytiradi.

Atmosfera tarkibidagi ozonning umumiy 0.0001 foizdan ham kamroq. Lekin shu miqdorning 1 foizgagina kamayishi xavfli ultrabinafsha nurlarining yer yuziga yetib kelishini 2 foizga oshiradi.

Bu holat o'z navbatida quyidagi muammolarni keltirib chiqaradi:

- qatlaming yemirilishi natijasida katta miqdordagi quyosh radiatsiyasi yer yuziga yetib keladi;
- insoniyatda teri saratoni bilan kasallanish keskin ortib ketadi. Shifokorlar buturdagi saratonlarni davolash juda murakkabligi haqida ogohlantirishmoqda;
- insonning kasallikkarga qarshi kurashuvchi immun tizimida susayish kuzatiladi;
- hosildorlik pasayib ketadi. Daraxtlar parvarish qilinganiga qaramay, qurib qolaveradi. O'simliklarning barglari kichrayadi. Bu o'z navbatida kislorod manbai bo'lgan barglarda fotosintez jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi;
- qattiq ultrabinafsha nurlar dunyo okeanidagi jonzotlar va o'simliklarni ham zararlaydi. Ayniqsa, oziq zanjirining yetakchi bo'g'inlarida muhim o'rinn tutadigan, radiatsiyaga juda ta'sirchan bo'lgan planktonlar ko'p nobud bo'ladi. Jahon hamjamiyati Ozon qatlamini saqlab qolishning ahamiyatini tushunib yetgan holda bir qancha choralarini ko'rgan va ko'rmoqda. 1987-yilda qabul qilingan Montreal dalolatnomasida eng xavfli xlortoruglerodlar ro'yxati tuzib chiqilgan va bu moddalarni ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarish hajmini kamaytirishni o'z zimmalariga olganlar. 1990-yilning iyunida bu dalolatnomaga qo'shimcha kiritilgan. Unga ko'ra 1995-yilda freon ishlab chiqarishni ikki barobarga qisqartirish, 2000 yilda batamom to'xtatish ko'zda tutilgan. Lekin bu boradagi ishlar hammasi ko'ngildagiday ketgan taqdirda ham, birinchi ijobiy natija, qilingan mehnatning samarasi 2050-yilga boribgina ko'rinadi.

Hozirgi kunda butun yer shariga tarqalayotgan har qanday ekologik muammo olamshumul hususiyatga ega bo'lib bormoqda. Masalan, Orol muammosi yoki Chernobldagi halokat oqibatlari sayyoramizning turli chekkalarida aks sado bermoqda. Chang bo'ronlari, yog'in miqdorining kamayishi, yozgi haroratning ko'tarilishi Orol dengizi sayozlanishining natijasidir, butun jaxon shu muammolarni hal qilishga o'z

xissasini qo'shishga harakat qilmoqda, chunki mintaqada mavjud bo'lgan har bir —qizg'in ekologik nuqtalar o'ta isish va kutilmagan joylarda o'nglab bo'lmas o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Bu borada O'zbekiston kreativ g'oyalar bilan,o'z hissasini sezilarli ravishda qo'shib kelmoqdalar

1993-yil 18-may kuni Mamlakatimizdagি Ozon qatlamini himoya qilish to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi va Ozon qatlamini yemiruvchi moddalarga doir monireal protokolga qo'shildi,2001-2007- yil Ozon qatlamini yemiruvchi moddalarni qisqartirish borasidagi davlat dasturini birinchi bosqichi amalga oshirilgan edi,bu vaqt davomida

3.04 mln AQSH dollari ga teng bo‘lgan 5 ta loyiha yo'lga qo'yilgandi.

Shu o'rinda Gidro xlor ftor (HCl, HF) birikmalarini muomiladan chiqarish kerakligi ta'kidlagandi, shu kunga qadar Ozon qatlamini muhofaza qilish bo‘yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi. Istisno tariqasida mavzuga atroflicha yondashsak xabarimiz bor bizni va (jaxondi) o'z tasir doirasiga ologan bu virus tabiatgaham tasir doirasiniham o'tkaza oldi faqat yaxshi tarafga qanday deysizmi pandemiya sababli insoniyat olamida harakatlarga cheklolvar qo'yilgandi,shu o'rinda avtotransport vositalarining harakatlari ham xo'sh bu bilan biz tabiatga nima beroldik ?

-Ozon qatlamini yemirilishi ni va qatlamlarni zarar ko‘rgan hududlari qayta tiklanishi

-Insoniyat zararli gazlar tasirida bo'lmasligi,Zavod fabrikalar to'xtab atrofga tasirini o'tkazmaganligi,shu o'rinda pandemiya tabiatni e'zozlaganligini ko'rishimiz mumkin.

Tabiatni bizga berilgan ne'matlari beqiyos bu tabiat dan to'laqonli va zarar yetkazmagan holda foydalanishimiz talab etiladi.

Tabiatni asrang zero bu bebaho boylikdir !

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://namdu.uz/en/post/679>
2. <http://eco.gov.uz/uz/site/news?id=917>

O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA MATN VA RASMLARNING O'RNI.

Rahimova Gulbahor

Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi

Ne'matova Hulkar

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimini yanada takomillashtirish uchun matn va rasmlar orqali o'qitish tizimi hamda bu tizim orqali bolada badiiy va so'zlashuv uslubi,kreativ fikrlash qobiliyatining shakllanishi xususida fikr bildirilgan.

Kalit so'z: matn, rasm, kreativlik, she'r, hikoya, ertak.

РОЛЬ ТЕКСТА И ИЗОБРАЖЕНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ В ОБУЧЕНИИ ГРАМОТНОСТИ.

Аннотация: В данной статье рассматривается система обучения через текст и картинки для дальнейшего совершенствования знаний учащихся начальных классов, а также развития у ребенка художественно-разговорного стиля, способности мыслить творчески.

Ключевые слова: текст, картина, творчество, стихотворение, рассказ, сказка.

THE RULE OF TEXT AND PICTURES IN THE FORMATION OF STUDENTS CREATIVE ABILITIES IN LITERACY TEACHING.

Annotation: This article discusses the system of teaching through text and pictures to further improve the knowledge of primary school students, as well as the development of the child's artistic and conversational style, the ability to think creatively.

Keywords: text, picture, creativity, poem, story, fairy tale.

Mamlakatimizda yosh avlodning ma'naviyatini yuksaltirish,dunyoqarashini kengaytirish,mustaqlil fikrlashi va o'z kelajagini o'zi qurishda badiiy adabiyot hamda ona tilini o'rganishning ahamiyati katta.Ayniqsa,bu borada bugungi kunda boshlang'ich sinf darsliklarida,o'quvchilarga matn,rasm orqali bilim berish va uni o'qitish tizimi yanada takomillashib,bolada ijodkorlik,o'z fikriga ega bo'lish,urf-odatlarga hurmat bilan qarash,nutq madaniyatini shakllantirishga yordam bermoqda.Chunki matn orqali bola yuqori sinflarda o'tiladigan mavzularning boshlang'ich tushunchalarini bilib

oladilar.Badiiy asar matni ustida ishslashning quyidagi turlaridan foydalilanildi:
1) Tanlab o'qish-bunda o'quvchi matnning berilgan vazifaga mos qismini o'qiydi. Vazifa asarning mazmunini oydinlashtirish,sabab-natija bog'lanishni belgilash, badiiy xususiyatini ochish,o'qilgan matnga o'z shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat bo'lishi mumkin. Masalan:2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi (8-bet) «Chumolining jasorati» hikoyasidan chumolining Vatanni asrash lozimligi haqidagi so'zlar mavjud qismini topib o'qing kabi topshiriqlar berilishi lozim.Tanlab o'qishning murakkabroq turlari matndan sabab-natija munosabati bilan bog'langan dalillarni taqqoslashni umumlashtirishni talab qiladigan o'rirlarni topib o'qish hisoblanadi. 2-sinf darsligidagi (12-bet) «Nobel olaman» hikoyasi yuzasidan topshiriq quyidagicha bo'lishi:-Muhammad Haydarov katta bo'lganida qanday ishlar qilmoqchi? SHu o'rinni topib o'qing.-Aytingchi,u o'z maqsadiga erishish uchun qaysi fanlardan yaxshi o'qishi kerak? SHu o'rinni topib o'qing. Bu savollar orqali o'quvchi o'zi fikrlagan holda yoshlikdan inson o'z oldiga katta maqsadlar qo'yishi va bu maqsadga erishish fanlardan a'lo baholarga o'qish kerakligini bilib oladilar. **2) O'quvchilarining berilgan savol va topshiriqlariga so'zları bilan javob berishi.** Bunda savollar asosan o'quvchilarda o'qiganlari yuzasidan muhokama yuritish asarda qatnashuvchi qahramonlarni baholashga, mustaqil fikrlashga undashi lozim. Abdulla Po'latovning «Vaqt qadri»(1-sinf) (20-bet)she'ri asosida -Vaqt nima?,-Boqi o'ynashga ham,bobosi aytgan ishni qilishga ham vaqt topsa bo'larmidi?,-Nega vaqtni oltinga o'xshatamiz?kabi savol-topshiriqlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi va bolani o'ylashga,fikrlashga undaydi.
3) O'quvchilarni savol tuzishga o'rgatish. Bu matn ustida ishslashda yaxshi natija beradi.Metodist olimlarning fikricha,to'g'ri berilgan savolda yarim javob tayyor bo'ladi.O'quvchilar matnni ongli o'zlashtira olsalargina,matn yuzasidan savol bera oladilar.O'quvchilarga savol tuzishni o'rgatish 2-sinfdan boshlash maqsadga muvofiqdir.O'quvchilarni ongli ravishda savol tuzishga o'rgatish uchun o'qituvchi matnga o'zi tuzgan yoki kitobda berilgan savollarni tahlil qiladi.Tahlil uchun „Nega bu savol qo'yilgan?”, „Unda kim yoki nima haqida gap boradi?”, „Savol ko'proq qaysi so'zlar bilan boshlandi?” kabi savollarni ishlataladi va matndan foydalangan holda bu savollarga javob berishni o'rgatadi.Barchamizga ma'lumki,savod o'rgatish darslarida matnlar „Osandan qiyingga” tamoyili asosida 2-3 ta gap,tasvir yoki syujet asosidagi rasm bilan beriladi.O'quvchilar matnni o'zlashtirib olishlari,tasavvur qilishlari uchun rasmlarning ahamiyati juda katta.Chunki ular ba'zi o'rirlarda eshitganlaridan ko'ra ko'rganlarini ko'proq esda saqlab qoladilar.Hali avtomatik o'qish ko'nikmasiga ega bo'limganliklari uchun ham bu davrda rasmiy matnlarning o'rni beqiyosdir.Boshlang'ich sinflarda o'qilgan badiiy va ilmiy ommabop asarlar ustida

ishlashning asosiy usullaridan biri asar matnini tasvirlash hisoblanadi.Har bir asar matnida hozirgi kunda tabiat manzarasi va qahramonlarning ,voqea va hodisalarining tasviri yozuvchi tomonidan asar syujeti rivojlanishi berilib boriladi.Bundan tashqari rasmlar orqali gap,matn,ertak tuzishlari ham mumkin va bu ularning nutqini,tafakkurini rivojlanishiga yordam beradi.Misol tariqasida 1-sinf kitobi (33-bet) „G’alati ziyofat” rasmi ertagi orqali o’zlari ertak tuzadilar. **Ertak:** Bir o’rmonda qizg’anchiq ola quyon yashagan ekan.Ola quyonning bir yomon odati uning juda qizg’anchiqligi edi.U o’rtoqlari- tipratikon,yumronqoziq bilan birga yemish izlagani chiqishsa,yo’ldagi turli-tuman qo’ziqorin,karam,sabzi kabi yemishlarni o’zlari uchun terishar ekan.Uylariga tarqalish paytida esa, yig’gan yemishlarini teng taqsimlar ekan.Lekin quyon do’stlaridan chaqqon bo’lganligi sababli ulardan ko’proq sabzavot terar ekan-u ,qizg’anchiqligi sababli ular bilan bo’lishmas ekan. Do’stlari uning bu odatini bilsada, quyondan unchalik xafa bo’lmas ekan. Negaki oz bo’lsa ham, sabzavot terishganiga qanoatlanishardi.Ular o’sha kuni turli xil taomlar pishirib, uylariga bir-birini mehmonga chaqirishar ekan.Quyon ham ular pishirgan mazali taomlardan tanavul qilar ediyu,lekin qizg’anchiqligi uchun o’rtoqlarini mehmonga taklif qilmas edi.Bir kuni o’rtoqlari o’rmondan birorta ham sabzavot topa olmay uylariga tarqalishdi.Quyonning uyi yonidan o’tayotgan tipratikon shirin sho’rva hidini sezibdi.Tipratikon kirsammikan deb o’yladi? U bugun sabzavot topolmay xomush tortgan do’sti yumronqoziqni ham chaqirgisi keldi va uni ham o’zi bilan ola quyonning uyiga boshlab bordi.Yumronqoziq ham mehmonga borishdan g’oyat xursand bo’ldi. Do’stlari ola quyonning eshagini taqillatar ekan, quyon bor xunuk ovozi bilan „kim” deb baqirdi.Do’stlari hayratlanib, eshik oldida biroz turib qoldi. Ola quyon do’stlarini ko’rib, zo’rg’a uyiga taklif qildi. Quyon sho’rvani qizg’anib,jahl bilan o’rtoqlari oldiga qo’ydi.O’zi esa oshxonadagi pashshalarga baqirish bilan ovora edi. Mehmonlar do’stidan xafa bo’lib uylariga ravona bo’lishdi. Quyon kelib qarasa, mehmonlar sho’rvaga qo’l ham urishmagan ekan. Ola quyon ilk marta qizg’anchiqligidan chunonam uyalibdi.CHunki do’stlari quyonni doimo xushmuomalalik bilan kutib olar ekan. Do’stlari undan hech narsani ayamasligi va qizg’anchiqligini bilishsa ham uni do’st deb, bu aybiga ko’z yumishganini endi tushundi. Quyon kech bo’lsa ham xatosini tushindi va do’stlaridan kechirim so’rab, uyiga mehmonga taklif qildi. O’rtoqlari quyonning uzurini qabul qilib,mehmon bo’lishdi. Ola quyon o’rtoqlarini chunon yaxshi mehmon qildiki, shundan buyon u butkul qizg’anchiqlik kabi yomon illatdan voz kechdi. Xalqimiz aytganidek: „Baxilning bog’i ko’karmas”,ya’ni baxil, qizg’anchiq inson-hayotda hech qanday o’rin topa olmasligi bejiz emas.

O'qituvchi bolalarning tuzgan ertaklarida: quyonning mehmonlarga qo'pollik qilgani sababi va quyonning xarakteriga o'xshagan tengdoshlaringizni ko'rghanmisiz?, „Qizg'anchiq” so'ziga yaqin ma'noli so'zlarni bilasizmi?, Mehmonni qanday kutib olish kerak deb o'ylaysiz?kabi savollar beradi va bizning o'zbek xalqi naqadar mehmondo'st xalq ekanligini ta'kidlab o'tib, ertak yanada mustahkamlanadi.

Ko'rinish turibdiki, matn va rasmalar orqali ishlash boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsliklarni yaxshi o'zlashtirishiga yordam berib qolmasdan balki bolada o'zining mustaqil fikrlash, nutq o'stirish, tasavvur, badiiy va so'zlashuv uslubini to'g'ri qo'llay olish hamda kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1) K.Qosimova , „Ona tili o'qitish metodikasi” kitobi Toshkent „Nosir” nashriyoti
- 2), „Ona tili va o'qish savodxonligi” 1-sinf 2-qism (20-33-betlar) Toshkent:2021
- 3), „Ona tili va o'qish savodxonligi 2-sinf 1-qism(8-12-betlar) Toshkent:2021
- 4) B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadova. „O'zbek tili o'qitish metodikasi” Toshkent „Yangi asr avlod” nashriyoti.2006
- 5) A.G'ulomov, M.Qodirov „Ona tili o'qitish metodikasi” Toshkent. „Universitet” nashriyoti.2001-y.

ХОЗИРГИ ЗАМОН ТИЛШУНОСЛИГИДА КОНЦЕПТНИНГ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК ТАДҚИКИ

Мирзаева Наргизой Санжаровна

Андижон иқтисодиёт ва қурилиш институти Иқтисод ва қурилиш факултети
Ижтимоий-иқтисодий фанлар кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада ҳозирги замон тилшунослигидага концептнинг лингвокультурологик тадқики ҳақида ёзилган.

Калит сўзлар: концепт, тилшунослик, маданият, тил

И.В.Палашевская нинг таъкидлашича, концептлар инсоннинг ақлий дунёсидаги маданиятнинг асосий бирликлари, шу жумладан, дунёдаги нарсаларнинг ҳақиқий ёки мумкин бўлган ҳолати (яъни, инсоннинг ҳақиқат объектлари ҳақида нимани ўйлаши, билиши, тахмин қилиши, тасаввур қилиши) ҳақидаги маълумотдир. Концептлар дунё концептуал тасвирнинг элементлари сифатида дунёни ва кундалик ҳаётни идрок этишдан тортиб, тушунчаларда акс эттирилган илмий талқингача оламнинг бутун парадигмасини бирлаштиради. Шу сабабли, концепт субъектив маъноларни ва умумий қабул қилинган анъанавий маъноларни ўз ичига олган семантик шаклланишдир, яъни, когнитив объект ёки ҳодисанинг барча потенциал семантик мазмунидир¹.

Р.М.Фрумкиннинг фикрича, “концепт” атамасидан фойдаланиш семантиканинг предмет соҳасини ва унинг бошқа фанлар билан ўзаро таъсир доирасини кенгайтириш билан боғлиқ. “Биз ушбу кенгайиш ортидаги йўналишларнинг ўзгаришини маънони мавхум моҳият сифатида талқин қилишни, биринчи навбатда ақлий моҳият сифатидаги концептни ўрганишгача бўлгван жараённи янада муҳимроқ деб ҳисоблаймиз:”².

Концептуал таҳлил билан шуғулланаётганлигини аниқ таъкидлаган турли муаллифларнинг асарларини ўрганиш шуни кўрсатадики, концептуал таҳлил ҳеч қандай ҳолатда концептларни тушунтиришнинг маълум бир усули (услуби, техникаси) эмас. Тегишли ишлар нисбатан умумий мақсад билан бирлаштирилган, унга эришиш йўлларига келсак, улар умуман бошқача бўлиб чиқади, десак тўғрироқ бўлади. Шуни таъкидлаш керакки, сезиларли фарқлар нафақат тадқиқот усуллари арсеналида (яъни, таҳлил деб ҳисобланадиган

¹ Палашевская И. В. Концепт «закон» в английской и русской лингвокультурах: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2001. – С.4.

² Фрумкина, Р.М. Концепт, категория, прототип // Лингвистическая и экстралингвистическая семантика: сборник обзоров. – М: РАН, 1992. – С. 30-32.

нарсада), балки биринчи навбатда маълум ишларда натижа деб ҳисобланадиган нарсада мавжуддир³.

Когнитив тилшуносликка ўзининг муносабатини билдирад экан, рус тадқиқотчиси Л.В.Правикова шундай деб ёзади: “Агар когнитив тилшуносликка, унинг пайдо бўлиши (тафаккур, инъикос фаолияти ва когнициянинг ўрганилиши, тадқиқ қилиниши)га нима туртки бўлгани эмас, балки тил сатҳлари тизимида унинг тадқиқот предметининг ўрни нуқтаи назаридан олиб қаралса, тилшуносликнинг бу йўналиши тилнинг мазманий параметрларини тадқиқ қилиш билан шуғулланади. Бу эса когнитив семантика, мантиқий семантика, фрейм семантикази каби йўналишлар бўлиб, улар ўз навбатида категориялар ва категориялаштириш, концептлар ва концептуаллаштириш, метафоралар ва метафоралаштириш, референция ва идрокий тилдаги нутқ фаолиятининг информацион аспектларини ўрганиш, мушоҳада қилиш демакдир”⁴.

Олима бу ҳақидаги ўз фикрига янада аниқлик киритиб, рус когнитив тилшунослигини чет элдаги бошқа турдош йўналишлардан куйидагича фарқлади: “Рус тилшунослигига когнитив тилшунослик ўзининг аниқ ривожланиш йўналишига эга. Агар чет эл тилшунослигига когнитив йўналиш турлича одатий семантикаларни ўрганиш билан боғлиқ ҳолда пайдо бўлган бўлса, рус тилшунослигига когнитив ғоялар, бизнинг фикримизга кўра, номинация (аташ, номлаш) соҳасидаги изланишлар билан боғлиқ ҳолда ўртага ташланган эди. Бу назарияда тилдаги шакл ва мазмун ўртасидаги ўзаро боғлиқлик семасиологик ва ономасиологик сатҳларда олиб талқин қилинган эди”²⁰.

Г.Г.Слишкин концепт на маданий, на лингвистики соҳага, на иккаласига бир вақтнинг ўзида тегишли эмаслигини таъкидлади. Тушунча ақлий бирлик, онгнинг элементидир. Айнан инсон онги маданият ва тил ўртасида воситачи ролини ўйнайди. Тил ва маданият ўртасидаги муносабатларни ўрганиш ушбу боғловчи элементсиз тўлиқ бўлмайди. Маданият ҳақидаги маълумотлар онга киради, унда филтрланади, қайта ишланади, тизимлаштирилади. Онг маълум коммуникатив мақсадларни амалга ошириш учун маълум бир коммуникатив вазиятда ушбу маълумотдан фойдаланадиган лингвистик воситаларни танлаш учун жавобгардир. Концепт - бу маданият, онг ва тил соҳасидаги илмий

³ Ўша манба

⁴ Правикова, Л.В. Когнитивная и когитативная лингвистика [Текст] / Л. В. Правикова // Вестник Пятигорского государственного ун-та. - 1999. - Вып. 2. - С. 37-38. ²⁰ Правикова, Л.В. Когнитивная и когитативная лингвистика [Текст] / Л. В. Правикова // Вестник Пятигорского государственного ун-та. - 1999. - Вып. 2. –С. 39-40.

тадқиқотларни бир-бирига боғлаш учун мўлжалланган бирлик, у онгга тегишли, маданият билан белгиланади ва тилда аниқланади⁵.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Палашевская И. В. Концепт «закон» в английской и русской лингвокультурах: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2001. –С.4.
2. Фрумкина, Р.М. Концепт, категория, прототип // Лингвистическая и экстралингвистическая семантика: сборник обзоров. –М: РАН, 1992. –С. 30-32.
3. Правикова, Л.В. Когнитивная и когитативная лингвистика [Текст] / Л. В. Правикова // Вестник Пятигорского государственного ун-та. - 1999. - Вып. 2. -С. 37-38.
4. Правикова, Л.В. Когнитивная и когитативная лингвистика [Текст] / Л. В. Правикова // Вестник Пятигорского государственного ун-та. - 1999. - Вып. 2. –С. 39-40.
5. Слышкин, Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе / Г.Г. Слышкин. –М.: Academia, 2000. - С. 9.

⁵ Слышкин, Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе / Г.Г. Слышкин. –М.: Academia, 2000. - С. 9.

Vatan sevgisi iymon belgisi
Sobirova Gulsanam
41-sonli umumta`lim maktabi o`quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona vatanni qanchalik va nega ardoqlash haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so`zlar: Ona vatan, Mirzo Ulug`bek, Zahiriddin Muhammad Bobur.

Vatan.... Bu so'zni aytish yoki yozish shu qadar oson. Ammo uning asl ma'nosini tushuna olish yoki tushuntira olish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi, mening nazarimda.

Vatan..... Bu so'zning ma'nosini to'liq va mukammal anglash uchun professor yoki tenggi yo'q daho bo'lish shart emas. Shunchaki , asl haqiqatni ko'ra oluvchi beg'ubor qalbga ega bo'lish, kifoya.

Vatan... . Bu birgina jumla haqida aytish tugul jar solish va hatto hayolida o'yashga ham ruxsat berilmagan qanchadan-qancha musofirlar bor. Vatanga bo'lgan haqiqiy sevgini biz ana o'shalardan o'rgansak arziydi. Sababi, aynan ular o'z vatanidan olisda yashashyapti , o'zining emas boshqa diyorning havosidan nafas olishyapti , o'zining emas boshqa o'lkaning non-tuzini yeishyapti, o'zining emas, boshqa vatanning fuqarolari uchun xizmat qilishyapti.

Vatanga bo'lgan muhabbat qaysi zaminda va qaysi zamonda bo'lmasin doim ulug'lanadi va hozirgidek unga qilingan xiyonat kechirilmaydi va qattiq jazolanadi.

Bilasizmi , men hali yosh paytimda ona vatan faqat harbiy xizmatdagi aka-ukalarimiz tomonidan himoya qilinadi deb o'ylar edim.

Ammo maktabga qatnay boshlagach fikrim mutlaqo xato ekanini angladim. Chunki ustozlar va beminnat ko'makchilarimiz bo'lmish kitoblar yordamida vatan haqida ko'p narsa bilib oldim va hayron bo'lishingiz mumkin , buni hali ham o'rganmoqdaman. Axir aytishadiku, beshikdan to qabrgacha ilm izla deb. Keling vatan himoyachilari haqida gaplashamiz. Chegarada turib bizning tinchligimiz uchun kechalari uxlamay xizmat qilib kelayotgan harbiyalarimiz bor bo'lishsin. Toki ular bor ekan biz bemalol o'z uyimizda yashay olamiz va ona vatanimiz haqida kitob-u she'rlar yozib u haqida tinmay jar sola olamiz. Ularning o'z vataniga bo'lgan sof muhabbatini metin irodasi, o'tkir bilimi , vijdon-u iymoni va zo'r

g'ayrat bilan yurtining farovonligiga hissa qo'shayotganidan anglasak bo'ladi va bunga tasannolar bildiramiz.

Ona vatan jumlasidagi bu ona so'zi olam-olam ma'noga ega. Vatanimizni o'z onamiz kabi chindan va dildan yaxshi ko'ramiz.

Axir vatanimiz ham bizga xuddi onamizdek aziz va muqaddas. Undan bir soniyaga bo'lsa ham uzoqlashsak, xuddi onamiz kabi uni darrov sog'inib qolamiz. Xuddi onamiz bergen mehr-muhabbat, pok sut va ishonch kabi vatanimizga bo'lgan muhabbatimiz va sadoqatimiz kabi haqiqiy va sof.

Menimcha vatan haqidagi eng zo'r va ta'sirli hikmatli gaplardan biri

bu hozirgi matnning sarlavhasidir, ya'ni "Vatan sevgisi iymon belgisidir".

Shu o'rinda keling sizga bir rivoyat aytib beray.

Bu rivoyat qadim-qadim zamonlarda olis Hindiston o'lkasida sodir bo'lgan. "Shu davlatdagi bir podsho o'z amirlariga dunyodagi eng shirin narsani topib keltiringlar deya buyruq beribdi. O'shanda amirlar hayron bo'lib amir amrini bajarishni kirishishibdi. Bir vazir o'sha o'lkadagi eng mazali shirinliklardan olib kelibdi.

Yana boshqasi shu yurtda yetishtirilgan meva va sabzavotlarning eng mazalilarini topib podsho huzuriga eltibdi. Boshqa bir xizmatchi eng shirin yegulik deya asalni tortiq qilibdi. Ammo bu narsalardan podshoning hech ham ko'ngli to'lmabdi.

Amirlariga keltirilgan narsalardan ko'ngli to'limganligini va ularni o'z egalariga qaytarib berishini aytayotgan paytda odamlar oldiga bir savdogar tashrif buyurgan ekan. Uni yaxshilab mehmon qilishibdi va suhbatga tortishibdi. Savdogar Farg'onadan kelganligini va o'zi yetishtirgan qovunlarni sotishga olib kelganini aytibdi. Olib kelgan qovunlaridan ko'pini podshoga tortiq qilibdi. Podsho o'sha qovundan bir bo'lagini yegan zahoti uni dunyodagi eng shirin va mazali ekaniga ishonch hosil qilibdi."

Chunki bu qovunlar podsho uchun eng aziz diyor ya'ni o'z vatanida yetishtirilgan edi. Ha endi bu podshoning nomi sizga a'yon bo'ldi. Bu shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburdir.

U o'z yurtidan olisda yashadi va shunday vafot etdi. Shuning uchun ham Bobur g'azallarida va ruboiylarining bosh mavzusi vatan sog'inchi.

Axir vatan sog'inchini undan olisda yurganlargina his qila olishadi. Bu rivoyatdan shuni anglash mumkinki ona vatan haqida qancha gaplar, hikmatlar va maqollar bitsak ham baribir oz. Axir "Vatan sevgisi iymon belgisi" ku. Iymon haqida gap ketar ekan, bir narsani aytib o'tishim joiz deb bildim, hech shubha yo'qki iymon inson fazilatlari orasida eng hurmatlilaridan biri. Bundan ko'rinish turibdiki iymonli inson har doim odamlar e'tiborida va hurmatida bo'ladi. Iymoni butun ekan degan gaplar ham xalqimiz orasida ko'p uchraydi. Hayotidan shukur qilib yashash, doim yaxshi amallar qilish, o'z vatanini sevish, ardoqlash va himoya qilish ham insonning iymoni butunligidan dalolat beradi.

Shubhasiz, vatan to'g'risida bitilmagan dostonlar, qasidalar-u she'rlar qolmadi. Ularning safi juda uzun. Har biri alohida his-hayajonga, tuyg'ular ohangiga va so'zlarning ajoyib va takrorlanmas ritmiga ega. Ular inson qalbiga shunday o'rnashib oladiki, kitobxon beixtiyor har dam va har yerda bu ijodni tilga olishdan faxrlanadi va g`ururlanadi. Men ham aynan shunday go'zal she'rlardan birini bilaman. Bu o'zbek xalqining zabardast vakili, ajoyib she'rlar muallifi Muhammad Yusufdir. Menimcha uning ijodini bilmaslik insonni ko'p narsalardan bebehra qoldiradi. Uning she'rlaridagi ona, vatan, oila va baxt tushunchalarini yod olib, o'rganib katta bo'ldim desam adashmagan bo'laman.

Uning "Vatanim" nomli she'ri ham shular jumlasidandir.

"Men dunyoni nima qildim
O'zing yorug' jahonim
O'zim xoqon, o'zim sulton
Sen taxti sulaymonim
Yolg'izim yagonam deymi
Topingan koshonam deymi
O'zing mening ulug'lardan
ulug'imsan vatanim"

deya boshlanuvchi bu she'rda faqatgina vatan emas uning uchun jonini fido qilgan mard va jasur ajdodlarimiz ham yodga olinadi va ularga hurmat ko'rsatiladi.

She'rda tasvirlanganidek vatan ulug'lardan ulug'i deya e'zozlanmoqda.

She'rning keyingi parchalari ham birinchisi kabi ma'nodor va ta'sirli. Ularda Alisher Navoiy, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur va uning izdoshlari, ularning jasorati, vatan oldidagi burchlarini qanday bajarganliklari

tilga olinadi. Bu ijod mahsuli orqali biz o'z tariximiz bilan yuzlashamiz, u haqida yanada ko'proq va yaxshiroq fikrlar uyg'onishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida ajdodlarimiz naqadar iymonli va sadoqatli ekanliklarini anglatadi.

Vatan haqida bitilgan va uning naqadar muqaddasligi va yagonaligi shu kabi she`rlarda o'z tasdig'ini topadi.

So'zim oxirida demoqchimanki ozod va hur vatanda yashash har kimga ham nasib qilavermagan. Shu kunlarda ham ba'zi davlatlar ichki urushlarni boshidan kechirmoqda. Ya'ni bizning to'kin-sochin hayotimiz kimgadir armon va yana kimgadir hali hamon orzuligicha qolmoqda.

Demak bizning eng muhim vazifalarimizdan biri bu o'z vatanimiz farovon bo`lishi uchun oz bo`lsa-da o`z hissamizni qo`shish. Ona vatan oldidagi burchimizni ado etish uchun bizda hamma narsa yetarli. Shunda butun dunyo O'zbekistonning shuhrat-u qudratiga yana bir bora lol qoladi.

Zero kelajak biz yoshlarning qo'limizda!!!

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Muhammad Yusufning she`riy to`plami.

2.9-sinf O'zbekiston tarixi darsligi.

ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ПОДВИЖНЫХ И НАЦИОНАЛЬНЫХ ИГР НА ЭТАПЕ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ ФУТБОЛИСТОВ

Д.К. Исмагилов

г.Чирчик, Узбекский государственный университет физической культуры
и спорта

Аннотация. В статье рассматривается роль и значимость подвижных и национальных игр в подготовке юных футболистов.

Ключевые слова: подвижные игры, юные футболисты

Главной задачей на этапе начальной подготовки юных футболистов является расширение двигательных возможностей и компенсация дефицита двигательной активности, о чём отмечается в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 20 октября 2016 года №355.

Подвижная игра относится к тем проявлениям игровой деятельности, в которых ярко выражено роль движений. Для подвижной игры характерны активные творческие двигательные действия, мотивированные сюжетом включённые в программу подвижных и национальных игр при подготовке юных футболистов новыми ощущениями, представлениями, понятиями, тем самым способствуя развитию к разнообразным действиям, имеющие значения в повседневной практической деятельности, в самих занятиях играми, а также в футболе.

В подвижных и национальных играх совершенствуются ранее освоенные элементы технических приёмов и различные виды перемещений, остановок, поворотов, владение мячом, защитных действий, усложняется набор технико – тактических взаимодействий в нападении и защите. Одновременно в техническом и тактическом совершенствовании игры продолжается процесс разностороннего развития координационных и кондиционных способностей, психических процессов, воспитание нравственных и волевых качеств.

Юные футболисты совершенствуют умения и навыки в подвижных и национальных играх, которые по-разному воздействуют на организм, игровые функции обязывают постоянно действовать в коллективе, достигать общей цели, соблюдая дисциплину, что также является неотъемлемой частью для их

подготовки в играх они выражают свои эмоции, что даёт разрядку их эмоциональным негативным скоплениям.

Важно отметить, что и подвижные и национальные игры не только повышают общую физическую подготовленность, но и укрепляют здоровье формируя готовность к здоровью сбережению. В то же время, игры оказывают благоприятное влияние на длину тела, развития и укрепление костно – связочного аппарата, мышечной системы, на формирование правильной осанки, а также повышают функциональную подготовленность организма.

Необходимо проводить подвижные и национальные игры, включая их в подготовительную часть занятия совершенствуя умения и навыки различных двигательных качеств.

Подвижные игры: Мяч водящему. Играют две команды, построенные в колоннах. У каждой свой капитан, у которого мяч в руках. Капитан передаёт мяч между ног стоящий в конце колонны ловит мяч и бежит в начало её и передаёт мяч выигрывает команда, первая закончившая игру.

Гонки мячей по кругу. Две команды, играющих организуют два круга. Игроки в кругу становятся на расстояния вытянутых рук. Мяч передают по кругу своим партнёрам, пока не возвратится капитанам.

Литература.

Мусобақаларни яхши ташкил этиш ва ўтказишнинг энг муҳим шартларидан бири- бу спорт фаоллари билан тизимли равишда ишлаш. Фаоллар билан ишлаш турлича кўринишда бўлиши мумкин. Бу таркибида назарий ва

амалий машғулотлари бўлган семинарлар, тажрибали ҳакамлар билан учрашувлар, йирик мусобақаларда (ҳалқаро мусобақалар, Ўзбекистон биринчиликлари ва бошқалар) қатнашиш, туман ва шаҳар мусобақаларида тажриба ортириш, маҳсус “Ҳакам кутибхонаси”ни ташкил қилиш, “футбол бўйича ҳакам” стендини тайёрлаш, уй вазифалари, ҳакамлар имкониятлари ва х.к. Семинарлар ўtkазилишидан мақсад – ҳакамлик қоидаларини изоҳлаш, ҳакамлик амалиётида йўл қўйилиши мумкин бўлган ҳатоларнинг олдини олиш.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Мяконьков В.Б. Психологическая подготовка судей. - Официальный сайт Коллегии футбольных арбитров: www.fifa.com.
2. Абдула А.В., Ашанин В.С. Взаимосвязь различных сторон подготовленности арбитров и качества судейства в футболе: Олимпийский спорт и спорт для всех // Тезисы докладов IX Международного научного конгресса 20-23 сентября 2005 г. Киев. - Киев, 2005. - С. 298.
3. Дмитриев О.Б. Статистическая экспертная система «Соревнования по каратэ-до» для подготовки судей, тренеров и спортсменов к соревнованиям // Теория и практика физической культуры. - 2001. - № 11. - С. 43-45.
4. Коваленко А.А. Использование в практике судейства в спортивных танцах оценки качества исполнения технических действий // Проблемы развития танцевальных видов спорта: Материалы VIII Всероссийской научно-практической конференции. - М., 2004.- С. 18-26.

BUXGALTERIYA HISOBINING USULLARI VA TAMOYILLARI.

Turayeva Gulizahro

Guliston Davlat Universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasи o’qituvchisi

Xodjayev Shodiyor

Salimova Zulhumor

Barakayeva Feruza

Yaxshliqova Mohinur

Guliston Davlat Universiteti “DO’YQT” yo’nalishi talabalari

ANNOTATSIYA: Iqtisodiyotni erkinlashtirish va chuqurlashtirish sharoitida turli mulkchilikka asoslangan tashkiliy-iqtisodiy jihatdan bir-biridan farq qiluvchi ko‘plab xo‘jalik yurituvchi subektlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratildi. SHu munosabat bilan xo‘jalik yurituvchi subektlarda buxgalteriya hisobning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi va uning ustidan nazoratning samarali mexanizmini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir

Kalit so‘zlar: Biznes, moliya ,tadbirkorlik foydasi, asosiy o‘lchagich, muhimlik moliyaviy hisobotda, offsetting, mol-mulk.

KIRISH

Odatda, ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot ishlab chiqarishni tayyorlashdan boshlab, uni tayyor mahsulot holida omborga qabul qilingungacha bo‘lgan xarajatlar yig‘indisidan iborat bo‘ladi va ular mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi va ishlab chiqarishning xususiyatiga qarab har xil bo‘ladi. Xarajatlarning salmog‘i ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga, tannarx esa korxonaning daromadiga ta’sir qiladi. Shu sababli ularni to‘g‘ri hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda xarajatlarning tarkibi va turlarini bilish zarur.

Muxokama va natijalar.

Hozirgi vaqtida Respublikamizning hamma xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarining faoliyatini hisobga oluvchi asosiy Hujjat - "Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga qo‘shiladigan, uni ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi haqidagi" Nizom hisoblanadi. Bu Nizomga asosan boshqaruv hisobida tannarxga qo‘shiladigan xarajatlar tarkibi quyidagi maqsadlar uchun aniqlanadi:

- buxgalteriya hisobi schyotlarida bevosita mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonida yuzaga keladigan xarajatlar haqida to‘liq va aniq ma'lumotlar to‘plash;
- korxonalar faoliyati rentabelligini hisoblash;- raqobatbardoshligini aniqlash;

- soliqqa tortish asosini to‘g‘ri belgilash.

Ushbu vazifalarni yechish uchun xarajatlar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- mahsulotni ishlab chiqarish tannarxiga qo‘shiladigan xarajatlar; - davr xarajatlari tarkibida hisobga olinadigan va asosiy faoliyat foydasini aniqlashda e’tiborga olinadigan xarajatlar; - korxonaning umumiy faoliyatidan keladigan foyda yoki zararni aniqlashda hisobga olinadigan moliyaviy faoliyat xarajatlari;

- soliqqa tortishdan oldingi foyda yoki zararni aniqlashda hisobga olinadigan favqulodda ko‘zda tutilmagan zararlar yoki foyda. Korxonalarning o‘ziga xos xususiyatiga ko‘ra, xarajatlar tayyorlov va qayta ishlash xarajatlariga bo‘linadi. Yuqorida ta’kidlanganlar boshqaruv hisobi tizimida xarajatlar turli xil yo‘nalishdagi maqsadlar uchun guruhanishidan dalolat beradi. Bu narsani amaliyotda keng joriy etish boshqaruvchilarga ishlab chiqarishni boshqarish borasida asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Korxonalarda moliyaviy faoliyat xarajatlariga bank krediti bilan, ijara bilan bog‘liq, xorijiy valyuta jarayoni va boshqa moliyaviy faoliyat bilan bog‘liq xarajatlar kiradi. Favqulodda xarajatlarga korxonalarda tabiiy ofatdan ko‘riladigan zararlar kiradi. Bu tur zararlar korxonalarda, masalan, yong‘in natijasida mahsulot nobud bo‘ladi. Shuning uchun boshqaruvchilar bunday zararlarga yo‘l qo‘ymaslik choratadbirlarini ko‘rishlari lozim. Ishlab chiqarish va davr harajatharining ajratilishi moddiy ishlab chiqarish zaxiralari qoldiqlari qiymatini aniqlash uchun zarur bo‘lib, davr hara-jatlari tegishli bo‘lgan hisobot davrida hisobdan chiqariladi va sotilmagan mahsulot, tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig‘ida kelgusi davrlarga o‘tkazilmaydi.

Xulosa

Keltirilgan ma'lumotlardan ko‘rinib turibdiki, xo‘jalik yurituvchi subektlarda buxgalteriya hisobning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi va uning ustidan nazoratning samarali mexanizmini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir Korxonalarning pul xarajatlari, hozirda va keyinchalik katta o‘rin egallashini hisobga olib, ularni alohida element qilib chiqarish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanimgan adabiyotlar:

- 1.S. Yuldasheva, I. Masteyeva, B. Maxkamov “Buxgalteriya hisobi asoslari.
2. Qaxxorovna, T. G., & Ikrom o‘g‘li, X. J. (2023). QISHLOQ XO‘JALIGIGA BOZOR MEXANIZMLARINI JORIY QILISH. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(2), 85-90.
3. Qudratullaevna, A. M., Qaxxorovna, T. G., & Eshbulovich, M. H. (2023). SUN’IY INTELLEKT VA UNING IQTISODIYOTGA TA’SIRI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(2), 65-69.

4. Turayeva, G., Mamatkosimova, M., Bo'ribekova, O., Jamoliddinova, N., Karimov, R., Kenjayeva, X., ... & Nurqulov, R. (2022). IQTISODIYOT TARMOQLARIDA BIRJA MEXNIZMLARIDAN FOYDALANISH. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(7), 165-168..
5. Qaxxorovna, T. G. (2023). The Impact of Artificial Intelligence on the Economy. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(2), 57-61.
6. Turayeva, G. (2023). FACTORS FOR INCREASING THE STABILITY OF GRAIN PRODUCTION AND PERFORMANCE INDICATORS. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(6), 45-50.
7. Qaxxorovna, T. G., Djurayevich, Z. A., & Bobomurot o'g'li, N. R. (2023). QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION FAOLLIKNI OSHIRISH. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(2), 80-84.

BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY STANDARTI

To'rayeva Gulizahro

Guliston davlat universiteti „Iqtisodiyot” kafedrasи o;qituvchisi

Ko'chinboyeva Gulmira

Axmedova Madinabonu

Narzullayeva Nurjahon

Maxmanazarova Mehriniso

Guliston Davlat Universiteti “DO’YQT” yo’nalishi talabalari

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda biznes sub’ektlarida buxgalteriya hisobini yuritishning amaldagi tartiblari ular faoliyatini haqqoniy aks ettirish, biznesning potensial qiymatini baholash, muhim, sifatli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qator tarixiy rivojlanish tendensiyalari kabi muammolar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Biznes, moliya ,tadbirkorlik foydasi, asosiy o‘lchagich, muhimlik moliyaviy hisobotda, offsetting, mol-mulk.

Kirish.

Ma’lumki, biznes bozor iqtisodiyotidagi asosiy mashg‘ulotlardan biri bo‘lib, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish manbai hisoblanadi. U ishlab chiqarish, tijorat, konsalting, bank va boshqa faoliyat sohalarini qamrab oladi. Xodimlar soni, ishlab chiqarish hajmi va faoliyat sharoitlariga ko‘ra kichik, o‘rta va yirik korxonalar farqlanadi. Biznesning eng keng tarqalgan turi kichik biznesdir: odatda, u bir hil mahsulot ishlab chiqaradigan va bozorda kichik ulushni egallagan kichik korxonadir.

Muxokama va natijalar.

Moliyaning muhim elementi sifatida resurslarni taqsimlash kategoriya hisoblanadi. Bu kategoriya qadimiydir va insoniyat jamiyatining paydo bo‘lishidan beri mavjud. O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan bo‘lib, u maqsad va holatiga qarab to‘rt darajadan iborat.1- chi daraja: Qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va hukumat qarorlari. Bular: 30.08.1996 yildagi "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida" gi Qonuni va 13.04.2016 yildagi 404-sonli yangi tahrirdagi Qonun qabul qilindi; O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi; va boshqa qonunlar; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari. 24.08.1994 yildagi "O‘zbekiston Respublikasining xalqaro amaliyotda qabul qilingan buxgalteriya hisobi va statistika tizimiga o‘tish davlat dasturi to‘g‘risida"gi 433-i-sonli qarori (24.05.1996 y.dagi 193- sonli qarorining yangi tahriri) va boshqalar.

2-chi daraja: Buxgalteriya hisobi qoidalarini ifodalovchi buxgalteriya standartlari, masalan, BHMS-1 — "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 14 avgustdag'i 474-son bilan ro'yxatga olingan), BHMS-12 - "Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish" (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 16 yanvardagi 596-son bilan ro'yxatga olingan) va boshqalar. Hozirgi kunda 23 ta BHMS ishlab chiqilgan.

3- chi daraja: Yo'riqnomalar va uslubiy ko'rsatmalar: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining, tarmoq vazirliklari va idoralarining yo'riqnomalari, me'yoriy hujjatlar.

4- chi daraja: Tashkilotning ichki hujjatlari: hisob siyosati; hisobning ish rejasi; hisobni yuritish axborotini qayta ishlash texnologiyalari va boshqalar. Barcha to'rt darajasi buxgalteriya hisobini me'yoriy tartibga solish bo'yicha umumiy o'zaro bog'liq tizimini tashkil etadi.

Buxgalteriya hisobi xo'jalik hisobining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanishi xo'jalik hisobining uch turga bo'linishiga olib keldi:		
Operativ	Buxgalteriya	Statistik
- bu ular ro'y bergan vaqtda ularni boshqarish maqsadida alohida faktlar yoki jarayonlar ustidan kuzatish va joriy nazorat qilish tizimi	- moliyaviy faoliyatni boshqarish va nazorat qilish maqsadida iqtisodiy axborotlarni uzluksiz o'zaro bog'langan holda aks ettirish tizimidir	- ularni boshqarish va nazorat qilish maqsadida ommaviy (umumiy) hodisalar, faktlar yoki Jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirish tizimi

Xalqaro standartlarda buxgalteriya hisobini muayyan iqtisodiy ob'ekt haqida moliyaviy axborotlarni baholovchi, qayta ishlovchi va uzatuvchi axborot tizimi sifatida belgilaydi.

Xulosha

O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan bo'lib, u maqsad va holatiga qarab to'rt darajadan iborat. Buxgalteriya hisobi xo'jalik hisobining ajralmas qismi hisoblanadi.Xo'jalik hisobi uch turga:Operativ,Buxgalteriya,Statistik ga

bo'linadi. Buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzzish chog'ida buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) va buxgalteriya hisobi asosiy tamoyillari qo'llanishini ifodalaydi. Buxgalteriya balansi uning resuslari va moliyaviy tarkibi, hisobat vaqtidagi moliyaviy ahvolini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni № 404. –T.: 2016 y
2. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari. T.: - O'BAMA. 2004.
3. Sh. Ergasheva, A.K.Ibragimov, N.K.Rizaev, I.R.Ibragimova Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma.// -T.: Iqtisodiyot, 2019. -227 bet.
4. Turayeva G. FACTORS FOR INCREASING THE STABILITY OF GRAIN PRODUCTION AND PERFORMANCE INDICATORS //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 45-50.
5. Turayeva, G., Abdullayeva, G., Abdurasulova, N., Ibragimova, A., Meliyeva, L., & Olimjonova, M. (2022). XALQARO BOZORLARDА "MADE IN UZBEKISTAN" BRENDIDAN KENG FOYDALANISH IMKONIYATINI YARATISH MEZONI. *Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar*, 1(27), 99-102.
6. Qaxxorovna, T. G. (2023). The Impact of Artificial Intelligence on the Economy. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(2), 57-61.
7. Qaxxorovna, T. G., Djurayevich, Z. A., & Bobomurot o'g'li, N. R. (2023). QISHLOQ XO 'JALIGIDA INNOVATSION FAOLLIKNI OSHIRISH. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMUY JURNALI*, 3(2), 80-84.
8. Qaxxorovna, T. G., & Ikrom o'g'li, X. J. (2023). QISHLOQ XO'JALIGIGA BOZOR MEXANIZMLARINI JORIY QILISH. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMUY JURNALI*, 3(2), 85-90.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA “1C: BUXGALTERIYA HISOBI”

Turayeva Gulizahro

Guliston Davlat Universiteti o'qituvchisi

Maxmudova Hurriyat

Norjigitova Oydinoy

Nurmatova Umida

Omonova Muxlisa

Guliston Davlat Universiteti SAA fakultet talabalari

ANNOTATSIYA Maqolada raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sharoitida buxgalteriya hisobida ro'y berayotgan o'zgarishlarning dolzarbliji, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan yangi boshqaruv texnologiyalarini izlash, raqobatbardosh ustunlikka erishish va shakllantirish zarurligi bayon etilgan. Bulutli texnologiyalarni buxgalteriya sohasiga joriy etish uning samaradorligini oshirish va xatolarni oldini olish uchun taklif etiladi. Ushbu texnologiyalarning afzallikkari va kamchiliklari ishning asosiy printsiplarida, shuningdek ularning tahlilida tasvirlangan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, buxgalteriya, bulutli texnologiyalari, ma'lumotlar bazasi, axborot texnologiyalari

KIRISH.

Bugungi kunda faoliyatning turli sohalarida, xususan, buxgalteriya hisobida ilg'or axborot texnologiyalaridan foydalanish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, bu esa har qanday ob'ektni boshqarish tizimining asosiy tarkibiy qismi hisoblana. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini takomillashtirishni talab qiladi, bu esa buxgalteriya hisobi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish xarajatlarni kamaytirish, inson omili ta'sirini kamaytirish va ishni tezlashtirish orqali tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birgalikda, bozor iqtisodiyoti sharoitida deyarli barcha tarmoq va sohalarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash tadbirlarining keng ko'lamda amalga oshirilishi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Dunyo iqtisodiyotining yuqori sur'atlarda rivojlanishi xamda uning xususiyatlari korxona faoliyaning professional yondashuvni talab qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Zamonaviy jamiyatda axborotni qayta ishlash texnologiyasining asosiy texnik vositasi shaxsiy kompyuterdir. Ko‘pgina tashkilotlarda buxgalteriya hisobi ma’lumotni qulay saqlash, hujjatlar va hisobtlarni yaratish, buxgalteriya ma’lumotlarini tahlil qilish uchun mo‘ljallangan maxsus dasturiy mahsulotlar yordamida amalga oshiriladi. Ular buxgalterlarga bir — biriga bog‘liq bo‘lgan buxgalteriya bo‘limlarini boshqarishga imkon beradi va rahbar xodimlar dolzarb ma’lumotlarga kirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishlari mumkin. Buxgalteriya hisobi avtomatizatsiyasi buxgalterlarning ishini sezilarli darajada osonlashtiradi va axborotni qo‘lda qayta ishlashga nisbatan quyidagi afzalliklarni beradi:

Bugungi kunda buxgalteriya dasturlarini etkazib berishda etakchi kompaniya 1C firmasi hisoblanadi. Firma maxsuloti “1C: BUXGALTERIYA HISOBI” tashkilotning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda buxgalteriya siyosatining parametrlarini sozlash, dastlabki hujjatlarni yaratish, hisobtlarni tuzish, tashkilotlarda buxgalteriya hisobi talablariga muvofiq kataloglarni sozlash imkonini beradi.

Bulutli texnologiyalarni buxgalteriya hisobida qo‘llash. Bugungi kunda eng mashhur raqamli texnologiyalardan biri bulutli texnologiyalardir. Bulutli texnologiyalar Internet xizmati sifatida xotira yoki hisoblash kuchi kabi kompyuter resurslarini taqdim etishni nazarda tutadi. Ushbu texnologiyadan foydalanishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, tashkilotlar qimmatbaho texnikani sotib olishlari, uni ta’mirlash uchun mutaxassislarni yollashlari yoki maxsus dasturiy ta’mintoni o‘rnatishlari shart emas. Bulut xizmatlaridan foydalanish uchun Internetga kirish etarli. Bulut texnologiyalarining eng oddiy namunasi virtual xotira, masalan, Yandex disk, DropBox, Google-drive.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Raqamlı iqtisodiyot zamonaviy buxgalterning imkoniyatlarini kengaytirmoqda, buxgalteriya hisobi sifati va tezkorligini oshiradi, turli xil hisobkitoblarni integratsiyalashning zamonaviy innovatsion yondashuvlarini shakllantiradi. Shaxsiy kompyuterlar va maxsus buxgalteriya dasturlari yordamida qog‘oz ishini avtomatlashtirilgan hisob bilan almashtirish buxgalterni muntazam ishdan ozod qilish va ularning ish natijalarini yaxshilash imkonini berdi. Bugungi kunda buxgalterning kundalik faoliyatiga tatbiq etiladigan barcha onlayn buxgalteriya operatsiyalarini, banklarni va axborot texnologiyalari portfellarini ishlab chiqarish imkonini beruvchi maxsus Internet-xizmatlar paydo bo‘ldi. Bulutli texnologiyalar-axborotni saqlash va qayta ishlash uchun internetda bo‘sh joy ijerasi xizmati. Bulutli texnologiyalar buxgalteriya hisobi uchun foydalanish uchun etarli afzalliklarga ega, ammo kamchiliklar ham mayjud, ularning asosiy qismi uzluksiz Internet aloqasi hisoblanadi.

Texnologiyadagi o‘zgarishlar buxgalteriyaning o‘zgarishiga olib keldi, bu esa olimlar va amaliyotchilarning asosiy tushunchalar modelini shakllantirish, qonunchilikni ishlab chiqish, me’yoriy hujjatlar, yangi raqamli iqtisodiyotda buxgalteriya hisobi bo‘yicha ko‘rsatmalar va qoidalarni ishlab chiqishni talab qiladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent sh., 2018 yil 3 iyuldagи PQ-3832 sonli. <https://lex.uz/docs/3806053>.
2. Коржова, О. В. Реализация в бухгалтерском учете информационных технологий в сфере цифровой экономики / О. В. Коржова, Л. В. Маркова // Научное обозрение. Педагогические науки. — 2019. — № 4-4. — С. 49-52.
3. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O’zR qonuni (yangi tahrir). 13.04.2016 y. № O’zRQ-404.
4. Qaxxorovna, T. G., & Ikrom o‘g‘li, X. J. (2023). QISHLOQ XO‘JALIGIGA BOZOR MEXANIZMLARINI JORIY QILISH. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(2), 85-90.
5. Qudratullaevna, A. M., Qaxxorovna, T. G., & Eshbulovich, M. H. (2023). SUN’IY INTELLEKT VA UNING IQTISODIYOTGA TA’SIRI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(2), 65-69.
- 6 Turayeva, G. (2023). FACTORS FOR INCREASING THE STABILITY OF GRAIN PRODUCTION AND PERFORMANCE INDICATORS. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(6), 45-50.
- 7 Otabekov, J., Alikulov, R., Turayeva, G., & Iskanova, M. (2023, April). THE “GREEN ECONOMY” AND ITS PRIORITY FOR IMPROVING ECONOMIC RELATIONS. In *International Conference on Business Management and Humanities* (Vol. 1, No. 1, pp. 20-24).
8. Turayeva, G., Ortiqbeyeva, S., Qo‘ziyev, I., Rasulov, A., Tojiboyeva, T., Turdibekov, U. B., ... & Yangiboyeva, M. (2022). MADE IN UZBEKISTAN BRENDI BILAN SOTILAYOTGAN EKSPORT MAXSULOTLARINING STATISTIK KO’RSATKICHLARI. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot*, 1(28), 240-243.

BUXGALTERIYA HISOBI SCHOTLARIDAN FOYDALANISH TALABI.

Turayeva Gulizahro

Guliston Davlat Universiteti o'qituvchisi

Haqnazarova Kamola

Pardayeva Zulayxo

Tursunova Aziza

Gulmurodova Nozima

Guliston Davlat Universiteti SAA fakultet talabalari

Annotatsiya:

Hozirgi kunda mamlakatimizda Bozor munosabatlarining rivojlanishi xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risida axborotlarni shakllantirish jarayonlariga yangicha talablar qo'ymoqda. Buxgalteriya hisobi natijaviy axborotlarining foydalilagini ta'minlash muammolari mutaxassislarining diqqat markazida turibdi. Bu manfaatdor axborotdan foydalanuvchilar nuqtai-nazaridan xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni ishonchliligi va obyektivligini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: Schotlar rejasi, aktiv schotlar, passiv schotlar, balansdan tashqari schotlar, doimiy schotlar.

Kirish:

Korxonalar o'z xo'jalik faoliyatida mablag'larini va ularning tashkil topish manbalarini, xo'jalik jarayonlarini hamda sodir bo'layotgan turli-tuman xo'jalik muomalalarini aks ettirish uchun buxgalteriya hisobi schotlaridan foydalanadi. Bu schotlarda nimalar hisobga olinishi, ular yordamida qanday umumlashtiruvchi ma'lumotlar olish mumkinligini bilish shu schotlardan korxonalar amaliyotida to'g'ri foydalanish uchun shart-sharoit yaratib beradi. Qo'llanilayotgan buxgalteriya hisobi schotlari xo'jalik mablag'lari, ularning tashkil topish manbalari va xo'jalik jarayonlarini guruhashni ta'minlashi lozim

Muxokamalar va natijalar

Xar bir korxona moliyaviy faoliyatini olib borar ekan, buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo'yicha 21 sonli BMXSga asosan schotlar rejasiga tayanib buxgalteriya hisobini yuritadi. Buxgalteriya hisobining schotlari iqtisodiy mazmuniga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

- I. Xo'jalik mablag'lari (aktivlar)ni hisobga oluvchi schotlar.
- II. Xo'jalik mablag'larining manbalarini (passivlar)ni hisobga oluvchi schotlar.
- III. Xo'jalikjarayonlarini hisobga oluvchi schotlar

Buxgalteriya hisobi schotlarini tayinlanishi va tuzilishiga qarab tasniflashda bu schotlarning nima uchun xizmat qilishi, ularning debet va kredit oboroti hamda qoldig'ining qanday mazmunga egaligi hisobga olinadi. Bunday turkumlash xo'jalik muomalalarini aks ettirishda schotlardan to'g'ri foydalanish zarurligini aniqlashga yordam beradi. Schotlarning tayinlanishi va tuzilishiga qarab guruhanishini o'rganish buxgalteriya schotlarida xo'jalik muomalalarini ikkiyoqlama yozuv usulini o'zlashtirishga katta yordam beradi. «Asosiy ishlab chiqarish», «Yordamchi ishlab chiqarish» schotlar misolida «Kalkulyatsion schot»chizmasini korishimiz mumkin. 1-rasm. «Kalkulyatsion schot»

D-t K-
t

<i>Boshlang'ich qoldiq – tugallanmagan ishlab chiqarish</i>	<i>Oborot - etishtirilgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlarning reja tannarxi bo'yicha qiymati (-)</i>
---	--

Oborot - mahsulot etishtirish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan haqiqiy xarajatlar (Q)

Oxirgi qoldiq – tugallanmagan ishlab chiqarish

yoki korxonaning «Yakuniy moliyaviy natija» schoti olib qarasak jamlangan debet va kredit oborotlari taqposlanishi, korxona faoliyatining moliyaviy natijasi (sof foya yoki sof zarar) aniqlab beradi-2-rasm.

«Xarajatlarni hisobga oluvchi hisobga oluvchi

tranzit schotlar»

D-t

K-t

+

Xarajatlar

Oborot

«Daromadlarni

tranzit

K-t

D-t

-


Daromadlar

Oborot

D-t

Yakuniy moliyaviy natija

K-t



Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki,buxgaletriya hisobini to'g'ri tashkil etish uchun korxonada moliya xo'jalik faoliyati buxgaletriya hisobi schotlar rejasida va uni amalda qo'llash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi va schotlardan to'g'ri foydalana bilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Buxgaletriya hisobi.Darslik/A.A.Karimov,J.E.Kurbanbayev,S.A.Jumanazarov;-
- 2.Buxgalteriya hisobi nazariyasi,R.D.Dusturatov Toshkent-2020
- 3.21-sonli Buxgalteriya hisobi Milliy standarti.
- 4.Buxgaletriya hisobi asoslari.Darslik/S.Yuldasheva,I.Masteyeva,B.Maxkamov.
- 5.Turayeva, G. (2023). FACTORS FOR INCREASING THE STABILITY OF GRAIN PRODUCTION AND PERFORMANCE INDICATORS. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(6), 45-50.
- 6.Khahharovna, T. G., & Jumaboevich, M. T. (2022). Fintech Development in the Republic of Uzbekistan. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMUY JURNALI*, 2(1), 71-83.
- 7.Qaxxorovna, T. G., & Ikrom o'g'li, X. J. (2023). QISHLOQ XO'JALIGIGA BOZOR MEXANIZMLARINI JORIY QILISH. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMUY JURNALI*, 3(2), 85-90.
- 8.Qudratullaevna, A. M., Qaxxorovna, T. G., & Eshbulovich, M. H. (2023). SUN'YI INTELLEKT VA UNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMUY JURNALI*, 3(2), 65-69.
- 9.Gulizahro, T., Shohzodbek, S., Nodirjon, I., & Nasiba, R. (2022). The Role and Importance of Industry in the Fight against Poverty in Today's Economy. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 1(2), 5-10.
- 10.Turayeva, G. (2023). FACTORS FOR INCREASING THE STABILITY OF GRAIN PRODUCTION AND PERFORMANCE INDICATORS. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(6), 45-50.

Buxgalteriya hisobi fanini rivojlanishida raqamlashtirishni takomillashtirish

Turayeva Gulizaxro

Guliston Davlat Universiteti o'qituvchisi

Iskanova Mavlyuda

Guliston Davlat Universiteti o'qituvchisi

Asadova Shaxnoza

Suyunova Hilola

Guliston Davlat Universiteti SAA fakultet talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqola buxgalteriya hisobi fanining nazariy asoslari va buxgalteriya hisobi fanini rivojlanishida raqamlashtirishni takomillashtirishning o'rni hamda ahamiyati va bunga sababchi omillarga bag'ishlanadi. Buxgalteriya hisobini yuritishda qo'llaniladigan tizimlar zanjiri rivojlanishi uchun hissa qo'shgan olimlar va ularning fikrlari, ta'riflari aks etgan.

Kalit so'zlar: Buxgalteriya hisobi, buxgalterlar, korxonalarda buxgalteriya tizimi, EHM, 1S buxgalteriya, Excel

Kirish

Keyingi yillar mobaynida xalqaro standartlarga to'la-to'kis javob beruvchi buxgalteriya hisobi tizimini yaratish borasida ko'pgina islohotlar olib borilmoqda. Buxgalteriya hisobidan foydalanuvchilar doirasi ancha kengayib borayotganligi, integratsiya jarayonlari chuqurlashayotganligi, qo'shma korxonalar barpo etilayotganligi, jahon moliya bozoriga chiqilayotganligi sarmoyalari, ishchi kuchi va valyutaning ayrim mamlakatlar o'rtasida erkin harakatlanishi zarurligi buxgalteriya hisobi tizimini jahon standartlariga ko'chirishni yanada qattiqroq talab qilmoqda.

Muxokamalar va natijalar

Buxgalteriya hisobi -har qanday mulkchilik shaklidagi korxona xo'jalik faoliyatini yalpi, uzlusiz kuzatish va nazorat qilish, sodir bo'lgan voqeа-hodisalarni hisob registrlarida qayd qilish, ularga ishlov berish hamda hujjatlarga asoslangan holda moliyaviy hisobot ko'rinishida axborotlarni foydalanuvchilarga taqdim qilish tizimidir. Xo'jalik hisobi asosan quyidagi funksiyalarni bajaradi: a) iqtisodiyot tarmoqlarida sodir bo'layotgan xo'jalik jarayonlarini kuzatib borish; b) kuzatish orqali olingen ma'lumotlarni miqdoriy ko'rsatmalarda ifodalash;

c) korxona, tashkilot, muassasaxo'jalik faoliyatlarini kuzatish natijalarini maxsus hujjatlarda qayd etish; d) maxsus hujjatlarda aks ettirilgan ma'lumotlarni umumlashtirish va guruhlashtirish, xo'jalik jarayonlari ustidan nazorat o'rnatish hamda

ularga ta'sir etishdir. Buxgalteriya hisobining paydo bo'lishi tarixi uzoq o'tmishda, miloddan avvalgi IV asrga borib taqaladi, uning paydo bo'lish davrini aniqroq aniqlash qiyin. Arifmetika va yozuvning rivojlanishi buxgalteriya hisobining paydo bo'lishi uchun asos bo'ldi. Qadimgi dunyoda birinchi buxgalteriya usullari inventarizatsiya va buxgalteriya hisoblari edi. Arxeologlar Frot va Dajla daryolarining vodiylarida - Bobiliya, Nil daryolari - Qadimgi Misrda buxgalteriya hisobining paydo bo'lishining dastlabki izlarini qayd etdilar. Buxgalteriya hisobi yuritishning yangi davri EHMLar paydo bo'lishi bilan bog'liq. 1925 yilda V. Bush elektr releda yig'ilgan birinchi hisoblash mashinasini yaratdi. Bu avtomatlashtirishda emas, balki texnologiyada yangi qadam edi. Hisoblash jarayonini boshqarish hali ham odam zimmasida edi. 1944 yilda hisoblashlarni boshqarish avtomatik amalga oshiriladigan «Mark-1» tipidagi releli mashina yaratildi. Bu mashinaning yangi elementi boshqarish qurilmasidir. Biroq, har qanday mexanik qurilma kabi, «Mark-1» mashinasи ham hisoblash texnologiyasida sifat o'zgarishiga olib kela oladigan tezkorlikka ega emas edi. EHMLarning bir necha avlodlari takommillashib bugungi zamонавиу kompyuter ko'rinishiga keladi. To'rtinchи avlod EHMLari 75-yillardan boshlab vujudga kelib, katta integral sxemalar (KIS) asosida yaratilgan. EHMLarni avlodlarga ajratishda ularning qanday elementlardan yasalganligiga qarab emas, balki ularning ishi qanday tashkil etilganligiga va qanday dasturlar asosida ishlashiga ham e'tibor berishimiz kerak. Bu EHMLar orqali hisoblashlarni avtomatlashtirish orqali buxgalteriya hisobi yuritishni yanada osonlashtirdi. Dastlab 1979-yili Visicals nomi bilan Software Arts firmasida jadvallar bilan ishlovchi dasturiy taminot paydo bo'ldi, 1997-yilga kelib Microsoft tomonidan Excel dasturi taqdim etildi, bu dastur boshqalariga nisbatan juda juda qulay edi. Shundan so'ng "1S Buxgalteriya" buxgalteriya faoliyatini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot ishlab chiqiladi. 1S Buxgalteriya dasturi Rossiyaning 1S kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan.

Xulosa:

Xuddi shu kabi buxgalteriya hisobini axborot texnologiyalari orqali yuritish ham yuqori samara berishi hech kimga sir emas. Bu borada, mamlakatamizda yetarlicha amaliy tajriba orttirilgan. Buxgalteriya hisobi yuritilishining avtomatlashishi korxona va tashkilotning samaradorligini yanada oshirishi amalda isbotini topgan.

Foydalaniлган адабиётлар:

1.N.Sh.Kabirov. "PEDAGOGS" international research journal. "Buxgalteriya hisobi yuritish va audit haqida".

2.A.B. Muxametov, A.A Abdubohidov, " Buxgalteriya hisobi ".

3.S. Yuldasheva, I. Masteyeva, B. Maxkamov "Buxgalteriya hisobi asoslari.

4. Turayeva, G. (2023). FACTORS FOR INCREASING THE STABILITY OF GRAIN PRODUCTION AND PERFORMANCE INDICATORS. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(6), 45-50.
5. Qaxxorovna, T. G. (2023). The Impact of Artificial Intelligence on the Economy. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(2), 57-61.
6. Qaxxorovna, T. G., & Ikrom o‘g‘li, X. J. (2023). QISHLOQ XO‘JALIGIGA BOZOR MEXANIZMLARINI JORIY QILISH. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(2), 85-90.
7. Qudratullaevna, A. M., Qaxxorovna, T. G., & Eshbulovich, M. H. (2023). SUN’IY INTELLEKT VA UNING IQTISODIYOTGA TA’SIRI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(2), 65-69.
8. Gulizahro, T., Shohzodbek, S., Nodirjon, I., & Nasiba, R. (2022). The Role and Importance of Industry in the Fight against Poverty in Today’s Economy. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 1(2), 5-10.
9. Turayeva, G., Ismoilova, M., Abdug‘apparova, O., Abduqayumov, U., Anafiyayev, O., Ashurmatov, N., ... & Jumayeva, S. (2022). BOZOR AGROIQTISODIYOTIDAGI INSTITUTSIYONAL O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA HAMKORLIK TAMOYILLARI SHAKLLARI. *Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar*, 1(27), 82-85.
9. Qaxxorovna, T. G., Djurayevich, Z. A., & Bobomurot o‘g‘li, N. R. (2023). QISHLOQ XO‘JALIGIDA INNOVATSION FAOLLIKNI OSHIRISH. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(2), 80-84.

ФУТБОЛДА ТЕЗКОР ҲУЖУМГА ҚАРШИ ҲИМОЯ

Набиженов А.

ЎзДЖТСУ, 2-босқич магистранти

Аннотация. Мазкур тезисда футболда тезкор ҳужумга қарши ҳимоя ҳақида сўз боради. Тезисда давомида турли фикр ва мулоҳазалар келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: жамоавий ҳимояланиш, рақибларга қарши уюшқоқ тактик ҳаракатлар, ҳимоядаги команда ҳаракатлари.

Агар рақиб томон ҳужумга ўтаётганда, тактик восита сифатида марказ ёки қанот бўйлаб тўп узатиб беришдан фойдаланиб, асосан, тез ҳужумга зўр берадиган бўлса, ҳимояланаётган команда ўйинчилари мудофаанинг биринчи босқичида тўп бошқараётган рақибга фаол ҳужум қилиб, бунда қуидагиларга интилишлари керак:

а) ҳужумнинг муваффақиятли ёки муваффақиятсиз чиқишини белгилайдиган биринчи узатишга тўскинлик қилиш;

б) рақибни хато қилишга, энг яқин турган шерикларига кераксиз узатишлар қилишга мажбур этиш;

в) ҳар ким ўзи қўриқлаётган ўйинчисини жуда яқиндан тўсиб олади, чунки тўпи бор ўйинчи олди тўсилган шеригига тўп узатмайди, узоқ позициядаги ўйинчига тўп узатишга уриниш эса ҳимоячиларнинг тўп учун курашини осонлаштиради.

Агар рақиб фаол манёвр қилаётган бўлса, мудофаанинг иккинчи босқичи қаттиқ шахсий қўриқлашни ёки (зона тизимидағи мудофаада) айрим зоналарда пайдо бўлиб турган рақибларни синчиклаб кузатиб, уларнинг ҳужумни ривож топтиришга уринишларини барбод қилишини назарда тутади.

Агар рақиблар марказ бўйлаб ўйнаётган бўлса, ҳимоя қатори ўйинчилари марказий зонани мустаҳкамлаш ва ҳужум қилиш бурчакларини кичрайтириш учун жарима майдони худудига зичроқ тўпланиб оладилар. Борди-ю қанот бўйлаб ҳужум қилинаётган бўлса, унда ҳимоя қатори ўйинчилари ҳужум йўналиши томонга яқинлаша бориб, ишончлироқ страховка қилиш мақсадида қарши томондаги қанотни кўпинча кимсасиз қолдирадилар. Биринчи ҳолда, яъни рақиблар марказдан ҳужум қилаётганида, страховка орқага қараган бурчак шаклида бўлиб, бунда ортки марказий ҳимоячи бош роль ўйнайди. Иккинчи ҳолда эса ўйинчи билан фаол курашдан озод бўлган ва дарвоза томонга яқин

диагонал бўйлаб орқада турган қанот ҳимоячиси ҳам страховка учун ортдаги марказий ҳимоячи билан баб-баравар жавобгар бўлади.

Мудофаанинг учинчи босқичида тўп ва ўйин жойи учун бевосита кураш назарда тутилади.



1-расм. Тез хужумга қарши ҳаракатлар

1-расмда тез хужумга қарши ҳимоя вариантиларидан бири кўрсатилган.

3-ортки марказий ҳимоячи очилиб чиқкан 9-ўйинчига йўналтирилган тўпни олиб қолди. Ҳимоячи тўпни олиб қўйганига қарамай, 9-ўйинчи 7- ва қисман 6-ўйинчилар ёрдамида тўп учун курашни давом эттиради.

Тезкор хужумга қарши ҳимояга бўлган асосий талаблар:

1. Тўпни яна қўлга киритиш ёки рақибнинг узоққа биринчи тўп узатишига халақит бериш учун, албатта тўп учун курашга киришиш керак.
2. Рақибларнинг тезкор манёвр қилиши олдини олиш билан бир вақтда майдоннинг ҳал қилувчи қисмларида ўйинчилар гурӯхларини қўпайтириш ҳисобига дарвоза томон ўтадиган ҳамма йўлларни ёпиб қўйиш учун иккинчи ва учинчи босқичларда ўйинчилар аниқ ҳаракат қилишлари лозим.
3. Узоқдан тўп биринчи марта кимга узатиб берилса, ўша ўйинчи нейтралланади.

**«CONFERENCE ON UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH 2023» VOLUME-1,
ISSUE-4 (30 April)
MUNDARIJA**

1	Қорақалпоғистон Республикаси маданий ўсимлари ёввой аждодларининг fabaceae lindl. оиласига мансуб Melilotus Officinalis L. турининг иқтисодий аҳамияти Г.П.Альменова, Л.М.Юлдашева	5-8
2	FORMATION OF NEW ECONOMIC RELATIONS IS THE KEY TO STABLE DEVELOPMENT OF AGRICULTURE Burkhanov Alisher Khadzhimuradovich	9-15
3	Grammatic issues in learning language Abdinavidov Shopo'lat Allanazar o'g'li,	16-18
4	Common mistakes in learning language Eshboyev Shokhboz Yusup o'g'li	19-20
5	Theory of translation in language learning Eshboyev Ro'zimurod Toxir o'g'li	21-23
6	INGLIZ TILINI O'RGANISHNING INNOVATSION USLUBLARI Abramatova Shoira, Bo'riyeva Kamola, Norqobilova Zohida	24-26
7	СПОРТЧИЛАРДА ПСИХОЛОГИК САЛОМАТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ Собиров Абдулазиз Абдурозиқовиҷ	27-29
8	Ozon hayot uchun Shopulatov Samandar Fayzullao'g'li	30-32
9	O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA MATN VA RASMLARNING O'RNI. Rahimova Gulbahor, Ne'matova Hulkar	33-36
10	ҲОЗИРГИ ЗАМОН ТИЛШУНОСЛИГИДА КОНЦЕПТИНИГ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК ТАДҚИҚИ Мирзаева Наргизой Санжаровна	37-39
11	Vatan sevgisi iymon belgisi Sobirova Gulsanam	40-43
12	ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ПОДВИЖНЫХ И НАЦИОНАЛЬНЫХ ИГР НА ЭТАПЕ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ ФУТБОЛИСТОВ Д.К. Исмагилов	44-45
13	СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ФУТБОЛИСТОВ Д.К. Исмагилов	46-47
14	OBSTRUCTIVE SLEEP APNEA SYNDROME IN YOUNG AND MIDDLE-AGED MEN WITH COPD L.U. Zakirova	48-50
15	HISTORY OF INTERCULTURAL COMMUNICATION Qodirova Dilnoza Xoliq qizi	51-53
16	Изучение показателей клеточно- гуморального иммунитета у детей хроническом вирусном гепатит В с острым гнойным средним отитом Нарзуллаев Н.У., Рахматов А.А.	54-56

17	БОЗОР МУНОСАБАТЛАРИ ШАРОИТИДА ДАВЛАТ БУДЖЕТИ ДАРОМАДЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ Тошанов Шухрат Жонтемир ўғли	57-58
18	COMPLICATIONS OF THE DISEASE IN PATIENTS WITH A HISTORY OF COVID-19 M. M. Yuldasheva, E.N. Majidova, J.A. Nazarova	59-62
19	IJTIMOIY SAYTLARDAN FOYDALANISH ODOBI VA BU MASALADA TAKLIFLAR Dilnoza Nazarova, Zafar Nurmatovich Abdusamadov	63-65
20	Shukur Xolmirzayev hayoti va ijodini o'rganish Xudayberganov Ma'ruf Olimkulovich	66-68
21	Интернет терминологияси тизими ва унинг ўзига хос хусусиятлари Сайдқодирова Дилфузахон Сайдқодировна	69-71
22	Ensuring the Educational Process in Elementary Grades through Subject Integration: A Case of Math, Language and Reading Literacy Panjiyeva Muattar XXX, Elmurodova Inoyat Abdumatalibovna	72-74
23	Cardiovascular Disease (CVDs) Sadaan Muhammad Shuaib Sayyed	75-80
24	Коврак усимлигининг биологик хусусиятлари. Буриева Дилноза Рамозон кизи	81-83
25	MAKTABDA FIZIKA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH HAQIDA Djabborxonova Dilshoda, Otaqulova Iroda Abdurashid qizi	84-86
26	Футбол бўйича хакамларнинг тайёргарлиги бўйича манбаларни умумлаштириш Бекназаров З.Қ	87-89
27	BUXGALTERIYA HISOBINING USULLARI VA TAMOYILLARI. Turayeva Gulizahro, Xodjayev Shodiyor, Salimova Zulhumor, Barakayeva Feruza, Yaxshliqova Mohinur	90-92
28	BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY STANDARTI To'rayeva Gulizahro, Ko'chinboyeva Gulmira, Axmedova Madinabonu, Narzullayeva Nurjahon, Maxmanazarova Mehriniso	93-95
29	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA "1C: BUXGALTERIYA HISOBI" Turayeva Gulizahro, Maxmudova Hurriyat, Norjigitova Oydinoy, Nurmatova Umida, Omonova Muxlisa	96-98
30	BUXGALTERIYA HISOBI SCHOTLARIDAN FOYDALANISH TALABI. Turayeva Gulizahro, Haqnazarova Kamola, Pardayeva Zulayxo, Tursunova Aziza, Gulmurodova Nozima	99-101
31	Buxgalteriya hisobi fanini rivojlanishida raqamlashtirishni takomillashtirish Turayeva Gulizaxro, Iskanova Mavlyuda, Asanova Shaxnoza, Suyunova Hilola	102-104
32	ФУТБОЛДА ТЕЗКОР ҲУЖУМГА ҚАРШИ ҲИМОЯ Набижонов А.	105-106